



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

OLIV TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI BARQARORLIK REYTING KO'RSATKICHLARI NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL QILISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Qudratbek Maxmudov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyatini barqarorlik reyting ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan tahlil qilishning pedagogik jihatlari narrative review usuli yordamida o'rganilgan. Tadqiqotda QS World University Rankings: Sustainability, Times Higher Education Impact Rankings 2025 va UI GreenMetric Sustainable University Rankings 2026 tizimlaridagi konkret indikatorlarning pedagogik mazmuni ochib berilgan. Tahlil natijasiga ko'ra barqarorlik ko'rsatkichlari oliy ta'lim faoliyatining olti pedagogik indikatorga, xususan, o'quv dasturlarining barqarorlik bilan boyitilishi, tadqiqotga asoslangan o'qitish, innovatsion pedagogik texnologiyalar, talabalarning akademik halolligi, professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyati va inklyuziv liderlik hamda raqamli savodxonlik bilan akademik etika kabilarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi. Maqolada oliy ta'lim tizimida barqarorlik ko'rsatkichlarini pedagogik amaliyotga integratsiya qilishning amaliy yo'nalishlari va ehtimoliy cheklovlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, QS Sustainability, THE Impact Rankings, UI GreenMetric, pedagogik jihatlari, barqarorlik ta'limi, o'quv dasturi, akademik faollik, inklyuziv liderlik, raqamli savodxonlik, akademik etika.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ АНАЛИЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕЙТИНГОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Кудратбек Махмудов

Чирчикский государственный педагогический университет, доцент (PhD)

Аннотация

В статье с использованием метода *narrative review* исследуются педагогические аспекты анализа деятельности высших учебных заведений с точки зрения показателей рейтингов устойчивого развития. В ходе исследования раскрыто педагогическое содержание конкретных индикаторов, используемых в системах QS World University Rankings: Sustainability, Times Higher Education Impact Rankings 2025 и UI GreenMetric Sustainable University Rankings 2026. Результаты анализа показывают, что показатели устойчивости напрямую связаны с шестью ключевыми педагогическими индикаторами деятельности высшего образования, а именно: интеграцией принципов устойчивого развития в образовательные программы, обучением на основе исследований, использованием инновационных педагогических технологий, обеспечением академической добросовестности студентов, развитием профессионального потенциала профессорско-преподавательского состава, а также инклюзивным лидерством, цифровой грамотностью и академической этикой. В статье также рассматриваются практические направления интеграции показателей устойчивого развития в педагогическую практику высшего образования и возможные ограничения данного процесса.

Ключевые слова: устойчивое развитие, QS Sustainability, THE Impact Rankings, UI GreenMetric, педагогические аспекты, образование для устойчивого развития, образовательная программа, академическая активность, инклюзивное лидерство, цифровая грамотность, академическая этика.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF ANALYZING THE ACTIVITIES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS FROM THE PERSPECTIVE OF SUSTAINABILITY

RANKING INDICATORS

Qudratbek Maxmudov

Chirchik State Pedagogical University, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article examines the pedagogical aspects of analyzing the activities of higher education institutions from the perspective of sustainability ranking indicators using the narrative review method. The study reveals the pedagogical content of specific indicators in the QS World University Rankings: Sustainability, Times Higher Education Impact Rankings 2025, and UI GreenMetric Sustainable University Rankings 2026 systems. According to the results of the analysis, sustainability indicators directly address six pedagogical indicators of higher education activity, namely the enrichment of curricula with sustainability content, research-based teaching, innovative pedagogical technologies, students' academic integrity, the professional capacity of teaching staff, inclusive leadership, as well as digital literacy and academic ethics. The article also highlights practical directions and possible limitations of integrating sustainability indicators into pedagogical practice in the higher education system.

Keywords: sustainable development, QS Sustainability, THE Impact Rankings, UI GreenMetric, pedagogical aspects, sustainability education, curriculum, academic engagement, inclusive leadership, digital literacy, academic ethics.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-yilda qabul qilingan “Dunyoni o‘zgartirish: 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibi” hujjati 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadini (BRM) belgilab berib, oliy ta’lim ushbu maqsadlarni amalga oshirishning kalit institutsional aktorlaridan biri sifatida tan olingan [1]. Universitetlar nafaqat barqarorlik bilan bog‘liq bilimlarni ishlab chiqish va uzatish, balki o‘zlarining ichki faoliyatini ekologik javobgarlik, ijtimoiy adolat va shaffof boshqaruv tamoyillariga muvofiq tashkil etish orqali ham ushbu jarayonga hissa qo‘shadi. Aynan shu jihatdan zamonaviy oliy ta’limda barqarorlikni baholash mexanizmlari rivojlana boshladi.

Bugungi kunda barqarorlikni baholashga yo‘naltirilgan uchta yetakchi xalqaro reyting tizimi mavjud: QS World University Rankings: Sustainability [2], Times Higher Education Impact Rankings [3] va UI GreenMetric Sustainable University Rankings [4]. Ushbu tizimlar bir-biridan metodologiyasi, baholash o‘lchamlari va og‘irliklarni taqsimlash prinsiplari bilan farq qilsa-da, ularning umumiy maqsadi OTMlarning barqarorlikka qo‘shgan hissasini xalqaro miqyosda qiyosiy baholashdan iborat. Biroq mazkur indikatorlar faqat texnik ko‘rsatkichlardan iborat emas, balki ularning har biri muayyan pedagogik mazmun va talablarni ham o‘zida ifodalaydi.

Bunday yondashuv pedagogik nazariya uchun yangi tahlil maydonini ochadi. Barqarorlik ko‘rsatkichlari oliy ta’lim faoliyatining qaysi pedagogik jihatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qiladi? Ularni o‘quv jarayoniga qanday joriy etish mumkin? Bu savollarga javob berish mamlakatimiz OTMlari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega, chunki barqarorlik reyting ko‘rsatkichlarini mexanik ravishda qo‘llash o‘rniga, ularni pedagogik amaliyotga ongli ravishda integratsiya qilish samaraliroq natija beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi OTMlar faoliyatini barqarorlik reyting ko‘rsatkichlari nuqtai nazaridan tahlil qilishning pedagogik jihatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqotda tahlil uchun uchta yetakchi barqarorlik reytingining metodologik hujjatlari, monografik manbalar va sohaviy ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish asos qilib olindi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review)

Hozirgi oliy ta’limni baholashga oid barqarorlik konsepsiyasi sof ekologik kategoriya doirasidan tashqariga chiqib, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (Environmental, Social, Governance – ESG) o‘lchamlarini birlashtirgan ko‘p qatlamli yondashuvga aylangan. Ushbu yondashuvning eng ilg‘or amaliy ifodasi QS Sustainability reytingi bo‘lib, u universitetlar faoliyatini uchta katta kategoriya (atrof-muhitga ta’sir, ijtimoiy ta’sir va boshqaruv) bo‘yicha o‘ttizdan ortiq indikator

orqali baholaydi [2]. Atrof-muhitga ta'sir kategoriyasi atrof-muhit ta'limi (Environmental Education), atrof-muhit tadqiqoti (Environmental Research) va atrof-muhit barqarorligi (Environmental Sustainability) o'lchamlarini, ijtimoiy ta'sir kategoriyasi esa ish bilan ta'minlash va imkoniyatlar, tenglik, sog'liq va farovonlik, ta'lim ta'siri hamda bilim almashinuvi o'lchamlarini qamrab oladi. Boshqaruv kategoriyasi ostida akademik etika madaniyati va ochiq kirish nashriyot indikatorlari joylashtirilgan. Mazkur tuzilma barqarorlikni keng ko'lamli pedagogik vazifa sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Times Higher Education Impact Rankings 2025 esa boshqacha yondashuvni qo'llaydi. Xususan, u universitetlar faoliyatini BMTning 17 ta BRM asosida to'rtta asosiy ustun bo'yicha baholaydi: Tadqiqot (Research), boshqaruv va resurslar (Stewardship), tashqi aloqalar (Outreach) va o'qitish (Teaching) [3]. Har bir BRM bo'yicha bibliometrik, uzluksiz va dalillarga asoslangan ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Umumiy reyting hisobiga universitetning BRM 17 bo'yicha natijasi (22 foiz) va qolgan 16 ta BRMdan eng yaxshi uchta natijasi (har biri 26 foiz) hisobga olinadi. Ushbu mexanizm har bir universitetga o'z missiyasi va ustuvor yo'nalishlariga muvofiq sustainability profilini shakllantirish imkonini beradi, bu esa pedagogik strategiya nuqtai nazaridan muhim moslashuvchanlikdir.

UI GreenMetric Sustainable University Rankings tizimida esa barqarorlik to'qqizta mezon va kategoriya bo'yicha, jami o'n minggacha ball asosida baholanadi. Ushbu tizimda Ta'lim va tadqiqot (Education and Research) kategoriyasi 1300 ball atrofida bo'lib, u quyidagi aniq indikatorlarni qamrab oladi: barqarorlikka oid kurslarning umumiy kurslarga nisbati, barqarorlik tadqiqotlari moliyalashtirilishi, barqarorlik mavzusidagi ilmiy nashrlar nisbati, ekologik tadbirlar, talabalar tashkilotlari faoliyati, madaniy tadbirlar, xalqaro hamkorlikdagi barqarorlik dasturlari, talabalar ishtirokidagi jamoaviy xizmatlar, barqarorlik bilan bog'liq startaplar hamda "yashil ish o'rinlari"ga ega bitiruvchilar foizi [4]. Boshqaruv va raqamlashtirish kategoriyasi esa universitetning barqarorlikka sarflangan byudjeti foizi, barqarorlik veb-sayti, hisobotlar, AKT va sun'iy intellektni boshqaruvda qo'llash siyosati, ayollarning liderlik mavqeidagi nisbati, korrupsiyaga qarshi kurash va shikoyat tizimi, LMS asosidagi talabalar va xodimlar uchun raqamli savodxonlik dasturi hamda Etika kodeksi indikatorlarini o'z ichiga oladi.

Uchala tizim metodologik nuqtai nazardan farqlansa-da, ular umumiy g'oyaga, ya'ni barqarorlik oliy ta'limning butun strukturasiga singdirilishi hamda u pedagogik amaliyot, ilmiy tadqiqot, talabalar tajribasi va institutsional boshqaruvda bir-biri bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'lishi g'oyasiga yo'naltirilgan. Aynan shu ko'p qatlamli mohiyat barqarorlik reyting ko'rsatkichlarini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Barqarorlik ko'rsatkichlarining pedagogik o'lchamlari va ularni amaliyotga joriy etish yo'nalishlari

Yuqorida tilga olingan barqarorlik reyting tizimlarining indikatorlari pedagogik nuqtai nazardan oliy ta'lim faoliyatining olti asosiy o'lchamiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi. Quyida har bir indikatorni alohida tahlil qilishga kirishamiz.

O'quv dasturlari va ta'lim mazmunini barqarorlik bilan integratsiya qilish. Barqarorlik ko'rsatkichlarining birinchi pedagogik o'lchami o'quv dasturlari mazmuni bilan bog'liq. UI GreenMetric tizimida bu yo'nalishni ED1 indikator, ya'ni barqarorlikka oid kurslarning umumiy kurslarga nisbati to'g'ridan-to'g'ri o'lchaydi: agar barqarorlik fanlari ulushi 20 foizdan ortiq bo'lsa, universitet maksimal ball oladi [4]. QS Sustainability reytingida o'z navbatida "EE3 – Iqlimshunoslik va/yoki barqarorlik kurslari" ko'rsatkichi mavjud [2], THE Impact Rankings esa BRM 4 ("Sifatli ta'lim") doirasida o'quv dasturlarining uzluksiz ta'lim olish va o'qituvchi malakasiga ega bitiruvchilar bilan bog'liq bo'lgan indikatorlarini qo'llaydi [3]. Pedagogik nuqtai nazardan bu indikatorlar o'quv dasturlarining "qo'shimcha mavzu sifatida barqarorlikni kiritish"dan tashqariga chiqib, butun ta'lim mazmunini barqarorlik konsepsiyasi orqali qayta tuzishni talab qiladi. Bu jarayon o'quv dasturlarini xalqarolashtirish bo'yicha izlanishlarda ham asoslanganidek, mahalliy madaniy kontekst bilan global muammolar va kompetensiyalarni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi [9]. Natijada barqarorlik indikatorlari universitetdan

barqarorlikni alohida fan sifatida emas, balki barcha fanlarda kross-kesma yondashuv sifatida o'rganishni talab qiladi, degan xulosa chiqarish mumkin.

Tadqiqotga asoslangan o'qitish va talabalarning ilmiy izlanishi. Barqarorlik reytinglarida ilmiy tadqiqot ulushi yuqori "og'irlik"ka ega. UI GreenMetric tizimida ED2 (barqarorlik tadqiqotlari moliyalashtirilishi nisbati) va ED3 (ilmiy nashrlar nisbati) indikatorlari to'g'ridan-to'g'ri shu yo'nalishni baholaydi [4]. QS Sustainability tizimida har bir BRM bo'yicha tadqiqot ta'siri (Research Impact on SDGs) indikatorlari katta ulushni egallaydi, jumladan, barqarorlik tadqiqotining akademik reputatsiyaga ta'siri 10 foizgacha baholanadi [2]. THE Impact Rankings o'z navbatida har bir BRM bo'yicha bibliometrik ko'rsatkichlarni o'rtacha 27 foiz og'irlikda hisobga oladi [3]. Pedagogik nuqtai nazardan bu indikatorlarning amaliy mazmuni shuki, professor-o'qituvchilarning barqarorlikka oid tadqiqotlari talabalarning o'quv tajribasi bilan integratsiya qilinishi kerak. M. Hili va A. Jenkins ta'kidlaganidek, talabalarni nafaqat tayyor ilmiy bilim iste'molchisi, balki uning faol ishtirokchisiga aylantiruvchi tadqiqotga asoslangan o'qitish (research-based learning) yondashuvi zamonaviy oliy ta'limning ustun pedagogik strategiyasi sifatida qaralishi lozim [5]. J. Villison va K. O'Reganlarning tadqiqotchilik tayyorgarligi bo'yicha taklif etilgan dinamik modeli ham aynan talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini asoslaydi [6]. Shuning uchun barqarorlik tadqiqotini ta'lim jarayoniga singdirish pedagogik vazifaning markaziy yo'nalishi hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlarining ahamiyati. Barqarorlik reyting ko'rsatkichlari bilvosita ravishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantiradi. UI GreenMetric tizimida ED10 indikator "yashil ish o'rinlari"ga ega bitiruvchilar foizini o'lchaydi [4], QS Sustainability esa "ES1 – Alumni Impact for Innovation" indikator orqali bitiruvchilar tomonidan yaratilgan innovatsion barqarorlik yechimlarini baholaydi [2]. Bunday natijalarga erishish faqat an'anaviy ma'ruza-amaliyot tizimi bilan mumkin emas, balki bu loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, kazus metodi, "teskari sinf" va xizmat ko'rsatish orqali o'qitish (service learning) kabi innovatsion pedagogik texnologiyalarni talab qiladi. T.M. Bhutto boshchiligidagi izlanishda bunday innovatsion pedagogik yondashuvlar talabalarning tanqidiy fikrlashini va o'quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi tasdiqlangan, ayniqsa, ushbu jarayonda inklyuziv liderlikning vositachi roli muhim ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan [7]. Kelib chiqadiki, barqarorlik ko'rsatkichlarini bajarish nafaqat o'quv dasturi mazmunini, balki o'qitish usullarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Talabalarning akademik ishtirokchiligi va faol fuqarolik tarbiyasi. Barqarorlik reytinglarining bir qator indikatorlari talabalarning passiv ta'lim oluvchidan akademik va ijtimoiy faol ishtirokchiga aylanishini baholaydi. UI GreenMetric tizimida ED5 indikator talabalar tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan ekologik tadbirlar sonini (yiliga 20 dan ortiq bo'lsa, maksimal ball), ED8 talabalar ishtirokidagi jamoaviy xizmatlarni, ED9 esa barqarorlik bilan bog'liq talabalar startaplarini o'lchaydi [4]. QS Sustainability tizimida "ES5 – Atrof-muhit barqarorligiga yo'naltirilgan talabalar jamiyati" va "KE2 – Outreach and Community Engagement" indikatorlari aynan shu yo'nalishni baholaydi [2]. Pedagogik nuqtai nazardan bu indikatorlar talabaga akademik subyekt maqomini berishni nazarda tutadi. I. Petrushich asarlarida talaba-markazli ta'lim sifat kafolati tizimi bilan integratsiyalashganda eng samarali natija berishi ko'rsatib o'tilgan [8], Y. Xofuis va boshqalarning xalqaro o'quv guruhlarini o'rganishga oid izlanishida esa madaniyatlararo o'zaro ta'sir talabalarning multikultural shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishi ko'rsatilgan [10]. Shu jihatdan barqarorlik tarbiyasi va xalqaro hamkorlikning birgalikdagi pedagogik ta'siri talabalarning global fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi [11].

Professor-o'qituvchilar salohiyati, inklyuziv liderlik va akademik tenglik. Barqarorlik reytinglari faqat ekologik mas'uliyatni emas, balki akademik jamoadagi ijtimoiy tenglik va inklyuzivlik darajasini ham baholaydi. UI GreenMetric tizimida GD8 indikator universitetdagi ayollarning liderlik mavqeidagi nisbatini o'lchab, agar bu nisbat 50 foizdan ortiq bo'lsa, maksimal ball beradi [4]. QS Sustainability tizimida "EQ3 – Faculty Gender Ratio", "EQ4 – Women in

Leadership Ratio” va “EQ6 – Academic Equality (Staff View)” indikatorlari bevosita bu jihatni o‘lchaydi [2]. THE Impact Rankings o‘z navbatida BRM 5 (“Gender tenglikni ta’minlash”) doirasida professor-o‘qituvchilar va ayol talabalar bo‘yicha bir nechta indikatorlarni hisobga oladi [3]. Pedagogik nuqtai nazardan bu indikatorlarning ahamiyati shundaki, ular akademik liderlikni inklyuziv va ko‘p ovozli muhitda shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. B. Kutsyuruba va F.K. Kochananing o‘rganishlarida professor-o‘qituvchilar uchun mentorlik va farovonlik dasturlari ularning kasbiy salohiyatini hamda institutsional barqarorlikni ta’minlashning muhim mexanizmi sifatida tasvirlangan [12]. K. Karvalyo va boshqa hammualliflarning Finlyandiya oliy ta’limini tahlil qilgan izlanishlari esa pedagogik liderlikning akademik jamoa madaniyati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib bergan [13]. Bundan kelib chiqadiki, barqarorlik reyting ko‘rsatkichlari professor-o‘qituvchilar tarkibida tenglikni va inklyuziv liderlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik kadrlar siyosatini taqozo etadi.

Raqamli savodxonlik, akademik etika va sifat madaniyati bilan integratsiya. Barqarorlik reyting tizimlarining yangi avlodi raqamli boshqaruv va akademik etika ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratmoqda. UI GreenMetric 2026-yilgi metodologiyasida bir qator yangi indikatorlar joriy etilgan: GD7 – sun’iy intellekt va Internet of Things kabi ilg‘or raqamli texnologiyalarni boshqaruvga joriy etish siyosati, GD11 – LMS asosida talabalar va xodimlar uchun raqamli savodxonlik dasturi, GD12 – universitet rahbarlari, professor-o‘qituvchilar va talabalarga taalluqli yozma Etika kodeksi [4]. QS Sustainability tizimida “GG1 – Ethics Culture” indikatorini akademik etika madaniyatini, “GG2 – Open-Access Publishing” esa ilmiy nashrlarning ochiq imkoniyatda joylashtirilishini baholaydi [2]. Pedagogik nuqtai nazardan bu indikatorlar barqarorlik tushunchasini raqamli akademik etika va sifat madaniyati bilan bog‘laydi. Universitetda akademik halollik, plagiatga qarshi siyosat, ma’lumotlar himoyasi (GDPR yoki milliy ekvivalenti), shaffof boshqaruv va talabalar uchun raqamli savodxonlik dasturi mavjud bo‘lganda, barqarorlik ko‘rsatkichlari kuchayadi. Demak, barqarorlik faqat ekologik harakat emas, balki universitetning akademik etika madaniyati va raqamli savodxonlik darajasi bilan ham o‘lchanadi.

Natijalar va Muhokama (Results and Discussion)

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida barqarorlik reyting ko‘rsatkichlarini pedagogik amaliyotga integratsiya qilish bir qator nazariy-pedagogik tadqiqotlar natijalariga tayanadi. N.R. Pulatovanning talabalarining innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga oid izlanishida innovatsiya va sifat boshqaruvini birgalikda rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan [14]. Ushbu yondashuv barqarorlik indikatorlari talab qiladigan innovatsion startaplar, talaba tashabbuslari va xalqaro hamkorlik dasturlarini joriy etishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Sh.A. Soatovanning talabalarda liderlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha izlanishlarida esa liderlik tarbiyasi nafaqat akademik faoliyat, balki universitet ichidagi ijtimoiy javobgarlik amaliyoti bilan ham bog‘liqligi asoslangan [15]. Bu fikr UI GreenMetric va QS Sustainability tizimlaridagi inklyuziv liderlik indikatorlarining pedagogik mazmuni bilan o‘zaro mos keladi.

N.A. Beketov tadqiqotida pedagogik innovatsiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari kompleks tarzda yoritilgan, bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalarni barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan integratsiya qilishga ilmiy-metodologik yondashuvni shakllantiradi [16]. M.T. Hamdamovanning talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha izlanishlari raqamli boshqaruv kompetensiyalari va akademik etika bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni pedagogik amaliyotga olib kirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi [17]. D.A. Achilovanning klaster hamkorlik munosabatlarini modellashtirishga oid izlanishi esa barqarorlik reytinglari talab qilayotgan jamoaviy xizmatlar, mahalliy va xalqaro hamkorlik dasturlari uchun metodologik asoslarni taqdim etadi [18]. Mazkur tadqiqotlar majmui O‘zbekiston OTMlari uchun barqarorlik ko‘rsatkichlarini pedagogik amaliyotga integratsiya qilishning yagona ilmiy-metodologik tayanchini hosil qiladi.

Yuqoridagi nazariy asoslarga tayangan holda, mamlakatimiz OTMlari uchun quyidagi pedagogik yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: o‘quv dasturlariga barqarorlikni integratsion kompetensiya sifatida singdirish; barqarorlik mavzusidagi tadqiqotlarga asoslangan o‘qitish

modullarini ishlab chiqish; talabalar tashkilotlari va startaplarini barqarorlikka yo'naltirish; professor-o'qituvchilar uchun mentorlik va inklyuziv liderlikni rivojlantirish dasturlari; raqamli savodxonlik va akademik etika bo'yicha tizimli LMS asoslangan dasturlarni joriy etish hamda universitetning boshqaruv madaniyatini Etika kodeksi, korrupsiyaga qarshi tizim va ochiq shikoyat mexanizmi bilan mustahkamlash.

Barqarorlik reyting ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili bir qator metodologik va ehtimoliy kontekstual cheklovlarni ham hisobga olishni taqozo etadi. Birinchidan, barqarorlik bilan bog'liq pedagogik natijalarning ko'pchiligi miqdoriy baholash qiyin bo'lgan sifatga ega, ya'ni talabalardagi ekologik ong, akademik halollik madaniyati, fuqarolik mas'uliyati va madaniyatlararo hamdard bo'lish ko'nikmasi shular jumlasidan. Bunday natijalar reyting indikatorlarida bilvosita aks etsa-da, ular ko'proq sifat tahlili va pedagogik kuzatuvlarni talab qiladi. Shuning uchun barqarorlik indikatorlari faqat hisobot vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin emas, balki ular pedagogik o'zaro suhbat va refleksiya uchun zamin yaratadigan vosita bo'lib xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, barqarorlik reyting ko'rsatkichlari globallashtirish o'leholarga asoslangan bo'lib, ularning ko'pchiligi rivojlangan mamlakatlarning iqlim, infratuzilma va resurslari sharoitiga moslashtirilgan. UI GreenMetric tizimidagi "smart building", "zero emission vehicles" yoki "renewable energy on campus" indikatorlari rivojlangan mamlakatlardagi universitetlar uchun erishish darajasi yuqoriroq bo'lishi mumkin. Shu jihatdan bizning OTMlar uchun ushbu indikatorlarni mahalliy iqtisodiy va ekologik kontekst bilan moslashtirgan holda joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, barqarorlik konsepsiyasi ham ekologik, ham ijtimoiy, ham boshqaruv jihatlarini birlashtirgan ko'p qatlamli kategoriya bo'lib, agar universitet faqat ekologik ko'rsatkichlarga e'tibor qaratasa, ijtimoiy tenglik va boshqaruv shaffofligi sohalarida "ko'zga ko'rinmas" bo'lib qoladi. Aksincha, faqat boshqaruv hujjatlariga e'tibor qaratish ekologik amaliyotning real natijasini yaratmaydi. Shuning uchun pedagogik nuqtai nazardan barqarorlik reyting ko'rsatkichlari yagona tizim ichida kompleks tarzda ishlab chiqilishi va ularning har biri o'zining muayyan pedagogik mazmuni asosida tushuniladigan bo'lishi lozim.

Nihoyat, reyting ko'rsatkichlari pedagogik missiyaning vositasi bo'lib, aslo uning maqsadi bo'lmasligi lozim. Universitet o'zining pedagogik vazifasini barqarorlik reytinglariga moslashtirish o'rniga, barqarorlik reytinglarini o'zining pedagogik missiyasini takomillashtirish vositasi sifatida ishlatishi maqsadga muvofiq. Aynan shunday yondashuv reyting ko'rsatkichlarini sifat madaniyati bilan integratsiya qiladi va ularni mexanik bajariladigan talab sifatida emas, balki pedagogik rivojlanish indikatorlari sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Xulosa (Conclusion)

QS Sustainability, THE Impact Rankings va UI GreenMetric tizimlaridagi indikatorlarning pedagogik tahlili OTM faoliyatining yuqorida qayd etilgan olti asosiy pedagogik o'lchamiga e'tibor qaratishini ko'rsatdi.

Mazkur o'lchamlarning har biri konkret reyting indikatorlari orqali baholanadigan va shu bilan birga pedagogik amaliyotda samarali joriy etilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlardir. Respublikamiz OTMlari uchun barqarorlik ko'rsatkichlarini mexanik tarzda bajarish o'rniga, ularni pedagogik amaliyotga ongli ravishda integratsiya qilish nafaqat reyting natijalarini, balki ta'lim sifati, talabalar kompetensiyasi va akademik madaniyatning umumiy darajasini ham oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, barqarorlik reyting indikatorlarini oliy ta'limning konkret konteksti, milliy iqtisodiy va ekologik shart-sharoitlari, hududiy ehtiyojlari va madaniy o'ziga xosligi bilan uyg'unlashtirish zarurati saqlanib qoladi. Mazkur uyg'unlikni ta'minlash uchun monografik tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar va pedagogik tajriba-amaliyotning sinergetik birlashuvi talab etiladi. Aynan shunday yondashuv barqarorlik reyting tizimlaridagi indikatorlarni yurtimiz oliy ta'limini pedagogik takomillashtirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh qilishning samarali vositasiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015. – New York: United Nations, 2015. – 41 p.
2. QS World University Rankings: Sustainability. Methodology / QS Quacquarelli Symonds. [Elektron resurs]. – URL: <https://support.qs.com/hc/en-gb/articles/13384589836956>
3. Impact Rankings 2025: methodology / Times Higher Education. – London: THE, 2025. [Elektron resurs]. – URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/impact-rankings-2025-methodology>
4. UI GreenMetric World University Rankings: Questionnaire and Methodology 2026 / Universitas Indonesia. – Jakarta: UI GreenMetric, 2026. – 14 p.
5. Healey M., Jenkins A. Developing Undergraduate Research and Inquiry. – York: Higher Education Academy, 2009. – 152 p.
6. Willison J., O'Regan K. Commonly known, commonly not known, totally unknown: a framework for students becoming researchers // Higher Education Research and Development. – 2007. – Vol. 26, No. 4. – P. 393–409.
7. Bhuttah T. M., Xusheng Q., Abid M. N., Sharma S. Enhancing student critical thinking and learning outcomes through innovative pedagogical approaches in higher education: the mediating role of inclusive leadership // Scientific Reports. – 2024.
8. Petrušić I. Student-Centred Learning in the Context of External Quality Assurance // Medicina Fluminensis. – 2023. – P. 504–509.
9. Latz G., Helms R. M., Ikeda K. Internationalizing the Curriculum // Thriving in an Academic Career: An International and Interdisciplinary Guide for Early Career Faculty. – 2024. – P. 220–234.
10. Hofhuis J., Jongerling J., Jansz J. Who benefits from the international classroom? A longitudinal examination of multicultural personality development during one year of international higher education // Higher Education. – 2024. – P. 1043–1059.
11. Boboyeva S. R., Iskandarova A. I. Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik // Global Scientific Research and Intellectual Pursuits. – England, 2025. – Vol. 1, Issue 2. – B. 27–30.
12. Kutsyuruba B., Kochan F. K. Mentoring for Wellbeing in Higher Education. – London: Routledge, 2024.
13. Carvalho C., Friman M., Mahlamäki-Kultanen S. Pedagogy in Finnish Higher Education: A Case Example of Häme University of Applied Sciences // Praxis. – 2019. – P. 5–24.
14. Pulatova N. R. Talabalarning innovatsion boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari: ped. fan. b'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 41 b.
15. Soatova Sh. A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish: ped. fan. b'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 47 b.
16. Beketov N. A. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari: ped. fan. dok. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 64 b.
17. Hamdamova M. T. Talabalarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan. dok. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 66 b.
18. Achilova D. A. Uzluksiz ta'limda klaster hamkorlik munosabatlarini modellashtirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. b'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Guliston, 2025. – 59 b.